

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА ТАРБИYАЧИ FAOLIYATI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
2- kurs magistranti
Rasulova Nigora Ravshanbekovna

ANNOTATSIYA: Tarbiyachi vazifasiga bolalarni maktabgacha yoshgacha bo‘lgan tarbiyasi, bilimi bilan belgilangan qoidalar asosida ishlab boradi. Bunga o‘qish, tasviriy faoliyat, tabiat va og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish kabilar kiradi. Mutaxassis diqqatni bir joyga jamlovchi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, nutqni o‘stiruvchi va etika-estetikani rivojlantiruvchi o‘yinlar, turli xil qiziqarli topshiriqlar bilan bolalarni mashg‘ul qiladi. Bolaning sog‘ligi va hayoti uchun javobgar shaxs hisoblanadi.

KALIT SO’ZLAR: Zamonaviy yondashuv, maktabgacha ta’lim Yoshi, tafakkur, tizimlashtirish, yondashuv, malaka.

Respublikamizda **ta’lim tizimini, jumladan, maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish**, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilg‘or texnologiyalar asosida tarbiyalash va ijtimoiylashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda tarbiyachilar va ular kasbiy mahoratini oshirish hamda sifatli ta’limga bo‘lgan ehtiyoj dunyo miqyosida keskin orta boshladi. SHunday ekan tarbiyachilarni har tomonlama o‘z kasbining bilimdoniga aylantirish, o‘quv-tarbiya ishlari jarayonining mazmunini hamda shaklini yangilash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga erishish dolzarblik kasb etadi.

Haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Tarbiyachi o‘zi kim? Uning vazifasi nima? Jamiyatda tutgan o‘rni qanday?

Kasb ta’rifi. Tarbiyachilik ishi mas’uliyatli kasblardan biri hisoblanadi. SHu sababli mutaxassis o‘z faoliyati davomida pedagogika, psixologiya, gigiyena talablariga javob bera olishi kerak. Odatda tarbiyachi zimmasida bir guruh bolalarga g‘amho‘rlik qilish yotadi. Bu jarayon bino ichida va xuddi shu bilan bir qatorda tashqarida ham o‘tkazilishi mumkin. Kutilmagan jarohatlanish vaziyatlarida shifokor kelguniga qadar birinchi tibbiy yordam ko‘rsata oladigan darajada bilimga ega bo‘lishi talab etiladi.

Kasb tarixi. Qadimgi tarixdan ma’lumki, bolalar tarbiyasi bilan faqat ayollarimiz shug‘ullanishgan. Qadimgi YUnionistonda bola tarbiyasi bilan qullar shug‘ullangan. Yildan yilga bola tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan alohida bir mutaxassislarga, ya’ni tarbiyachilarga ehtiyoj sezilib, bugungi kunga kelib bunday mutaxassislarga ega tashkilot – davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ko‘rinishida vujudga kelgan.

Ish joylari. Tarbiyachilar – maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ya’ni rivojlantiruvchi markazlar, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boradilar. Mansab pog‘onasida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori darajasigacha ko‘tarilishlari mumkin.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagি bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik,adolat, jasurlik, kamtarlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simglik va hayvonlarga g‘amho‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi va quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

- yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kerakli bilimlarni egallab, adabiyotlarni tanlay oladigan, tadqiqot olib boradigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan bo‘lishi;
- bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarni to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;
- kerakli bilim, ko‘nikma, malakalardan xabardor qilish uchun nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalrini yaxshi o‘zlashtirib oishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;
- o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;
- har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi;
- kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi;
- bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarda e’tiborga olishi;
- ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazib, axborot almashib turishi;
- bolalarga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo‘lsa ovuntira olishi;
- kun tartibida olib borgan ta’lim-tarbiya ishlarini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo’llarini topishi kerak.

Eng muhim – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil

faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar. Bunda ularga pedagogik mahorat asqotadi.

Tarbiyachilik qobiliyatini haqiqatdan ham yuqori darajada egallagan tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonini go‘yo chetdan kuzatib turgandek ko‘rinadi aslida esa u bu jarayonni boshqarib beradi.

Buyuk grek faylasufi Suqrot o‘sha davrlardayoq mutaxassis tarbiyachilarni “fikr akusherlari” deb nomlagan edi. Tayyor haqiqatni e’lon qilish emas, balki bolalar ongida yangi fikr tug‘ilishini ta’minlash zarur.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha tarbiyachi ta’lim jarayonini qanchalik chuqur, oqilona, bilimli boshqarsa, shunchalik xato kam va shunchalik katta natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishdagi tarbiyachining birinchi vazifasi – maqsadni belgilanganlikdir. Maqsad esa pedagogik faoliyatda tayanch omildir. U tarbiyachi va bolalarning umumiy harakatini ma’lum yo‘nalishga boshqarib boradi. Bu esa o‘z o‘rnida kutilgan natijaga yetaklaydi. Boshqarish jarayonining mohiyati ana shundan iboratki, pedagogik jarayon ishtirokchilari harakatlarini muvofiqlashtirib turadi. Ta’lim jarayonini boshqarish avvalombor bolalar bilimiga asoslanadi, tarbiyachilarning tayyorlanganlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganliklari, rivojlanganliklari kabilar. Bunga bolalarning jismoniy, ruhiy rivojlanganliklari, aqliy va axloqiy shakllanganlik darajalari guruh sharoiti, oila tarbiyasi va boshqa shu kabilar kiradi. Bularni ya’ni bu vazifalar tashxis qo‘yish metodi orqali amalga oshiriladi. Bularni o‘rganmasdan, bilmasdan tarbiya maqsadlarini unga erishish, usullarini amalga oshirib bo‘lmaydi. Insonni har tomonlama tarbiyalash uchun pedagogika insonni barcha munosabatlarida bilish lozim.

Hozirgi davrda maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya ishlarni amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo‘ymoqda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g‘oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilish, mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirishga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda tarbiyachii muhim rol o‘ynaydi. Chunki u bir guruh sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Tarbiyachiining tarbiyalovchilik va ta’lim berish borasidagi ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘ziga biriktirilgan guruhdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg‘iz emas, ota-onalar, metodist, psixologlar bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda bolalarda milliy dunyoqarashni shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. Bolalarni turli bayram tadbirlarini tashkil etishga yo‘naltiradi va guruh jamoasini mustahkamlaydi.

2. Bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqiish va qobilyatini o‘sirish har bir bolaning individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish tarbiyachiining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir bolaning sog‘ligini mustahkamlashga ham e’tibor beradi.

3. Tarbiyachiining diqqat markazida bolalarning bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirishini ta’minalash masalasi turadi. Buning uchun u har bir bolaning kundalik o‘zlashtirishida voqif bo‘lib turadi. Orqada qolayotganlarga o‘z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Guruhdagi bolalarni o‘z-o‘zini boshqarish ishlariga yo‘naltiradi, ular ishtirokida guruh jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta’min etadi, tashkilot miqyosida uyushtirilayochtan muhim tadbirlerda o‘z guruhining faol qatnashishini ta’minalaydi.

5. Guruh bolalarining ota-onalari, hamkor tashkilotlar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.

6. Tarbiyachii ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan tashkilot o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Tarbiyachii o‘z guruhidagi turli hujjatlarni, bolalarning shaxsiy ma’lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko‘rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish tarbiyachiining shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir. Tarbiyachiining shaxsiy sifatlariga qo‘yiladigan talablar tarbiyachiga qo‘yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, tarbiyachii asosiy figura, bolalar ma’naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo‘lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o‘ynaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g‘oyaviy ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog‘liq. Buning uchun tarbiyachii fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o‘zining bilimini, ongini oshiradi.

Tarbiyachiining axloqiy obro‘sni g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi ham bu o‘rinda muhimdir. Tarbiyachii ana shundagina tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi bolalar onging va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachii uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiylici, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘kazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz, muhabbat muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat sopolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo‘srimcha ishda

muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi tarbiyachiining asosiy quroolidir.

Tarbiyachidan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z muomalasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, tarbiyachining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikkamosh bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligidagi asosiy sabab, bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi harakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir.

Tarbiyachining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqta u kommunikativ qobilyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqe va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobilyatiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachii tashkilotdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqo olmaydigan sohasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotiga ota-onalarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar tarbiyachiining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Tarbiyachii bolalarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobilyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur. "Ta'lim-tarbiya tizimida maktabgacha yoshdagagi bolalarning muammolariga nisbatan tarbiyachilarining munosabatlari asosan oddiy, vaziyatli xarakterga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini aksariyat hollarda bolalarning tashqaridan namoyon bo'lgan xatti-harakatlari va bajargan ishlariga juda oddiy, tezkor ko'mak tarzida yordamlashish bilan cheklanadilar. Bu jarayonda ularni intellektual jihatdan rivojlantirishga e'tibor qaratmaydilar".¹ Buni oldini olish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqori o'zlashtirishga erishishga o'quv, didaktik masala sifatida muassasaning ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish

¹ Хўжамиёров С. Мактабгача таълим ташкилотларида болаларни ақлий ривожлантириш масалалари. "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 12-кўп тармоқли илмий масофакий онлайн конференция материаллари. З-қисм. –Т.: 2020. 114-бет.

jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

Tashkilotda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi to'g'ri va bevosita guruhda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Tarbiyachii bolalarni o'qishga ongi munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Bolalarning o'zlashtirishini nazorat qiladi, kuzatadi va o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi va bu borada quyidagi jihatlarga e'tibor qaratadi:

1. Bilim olishga ongli munosabat va unga mas'uliyat bilan yondashish hissini tarbiyalash. Bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishiga qiziqishiga ularning harakatchangligiga, diqqatiga, faoliyatiga, tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni bolalarda shakllantirish uchun o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati tushuntirish va mashg'ulotlarga mas'uliyat bilan yondashishni talab etish tarbiyachiining faoliyatida muhim o'rinnegallaydi. Tarbiyachii bunga bolalarni ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lash, o'qish bilan hayot o'rtasidagi aloqali ko'rsatish misollarda ifoda etish, Vatanni himoya qilish hissini tarbiyalash orqali erishadi.

2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg'otish. Bola bilimga qiziqlay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bo'lsa-da bilishga qiziqishini uyg'otish kerak. Boladagi o'qish, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

3. O'quv mehnati madaniyatini oshirish. O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat holatlarda ta'lism-tarbiyani tizimli va rejali olib borish bormaslikdan kelib chiqadi. Tarbiyachiining asosiy vazifasi har bir bolaning fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarni yengish, tushunib o'qish va mustaqil ishslash, uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni, olgan bilimlarini amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Bolalarning aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqda gamho'rlik qilish lozim.

4. Bolalarni muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish. Bilim olish bilan dam olishni to'g'ri tashkil etish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lism samaradorligini oshiradi. Bolalar rejimga itoat etishlarini tarbiyachi va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. Shu yo'l bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatida saramjonlikka o'rgatish mumkin.

5. O'qish jarayonida o'rtoqlariga yordam berishni uyushtirish. O'rtoqlariga o'zaro yordam ko'rsatish guruhda do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

Bolalar jamoasi – tarbiyachining tayanchi. Bolalarni tarbiyalashda guruh jamoasidagilarning bir-birlariga ta’sirlari katta ahamiyatga ega. Ularning bir-biriga ko’rsatadigan o’rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko’nikmasini hosil qiladi.

Tarbiyachii bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o’rgatishi lozim.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko’rsatadi. Tarbiyachi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar va ta’lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak deydi. Tarbiyachi jamiyatda obro‘li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e’zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba’zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta guruh jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o’rgatadi. Bu jarayonda tarbiyachii ko‘p mashaqqatlarga duch keladi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi:

Xaq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamat bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Tarbiyachi bolalarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalar ekan, u o‘z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- tarbiyachii bolaning ota-onasi mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;
- bolalarga ahloqiy me’yorlarni o’rgatishi kerak;
- gerdayishi, manmanlik, ta’magirlik, nodonlik kabi illatlar tarbiyachi axloqiga yod sifatlardir;
- xalq nazarida olim hisoblanadigan tarbiyachilar yomon ishlardan, fisqu-fasoddan o‘zlarini tiya bilishlari zarur.

Tarbiyachining ota-onalar bilan to‘g‘ri muomala qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko‘pchiligi o‘rta yoki oliy ma’lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televideonie, radio orqali ko‘pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. Shunday vaziyatlar ham bo‘ladiki, o‘g‘il yoki qiz bola muassasada o‘zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga qulq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo‘pol, o‘zboshimcha, muassasada esa o‘zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to‘g‘ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Demak, tarbiyachii va ota-onalarning maqsadlari bir hil bo‘lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo‘lmaydi. “**Shuning uchun ham bolani maktabgacha ta’limda tarbiya qilar ekanmiz, “u hech narsani bilmaydi”, “u hali yosh”, “u hali bu narsalarning**

farqiga bormaydi” deb o’ylash katta xatolikdir. Bolani maktabgacha ta’lim-tarbiya yoshida yetarlicha tarbiyalab borilsa, kelajakda vatanimiz ravnaqi uchun yetarli hissa qo’shgan bo’lamiz”.²

Tarbiyachiining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, harakter va xulq-atvorida o’z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo’lmaydi, balki tarbiyada o’tkaziladigan ish tasodifyi tusga ega bo’lib, buning uchun ajratilgan vaqtini to’ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to’la qimmatli tarbiya yo‘q va bo’lishi ham mumkin emas. Ma’naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog‘liq bo’lib, bu talablar o’z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darjasini va jamiyatda yoshlarni o’qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma’naviy ahloq va e’tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

YUqorida ta’kidlab o’tilganidek, tarbiyachining muhim vazifalaridan biri bolalarda ma’naviy-ahloqiy ongni bir maqsadni ko’zlab tarkib toptirish, ahloqiy tuyg’ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko’nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Tarbiyachi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak:

- 1) tug‘ilib o’sgan joyiga, O’zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyg’ularini, uning tabiatini va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to‘g‘risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo sivilizitsiyasiga qo’shgan hissalarini to‘g‘risida ko‘proq bilishga intilishni tarbiyalash;
- 2) Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to‘g‘risida, tinchlik uchun kurash haqida, chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish;
- 3) bolalarda o’rtoqlik tuyg‘usini, boshqalarga yordam ko‘rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo‘lida birgalikda faoliyat ko‘rsatishga intilishni tarkib toptirish. O‘g‘il va qiz bolalar o’rtasida do‘stona munosabatlarni rag‘batlantirish, sohta o’rtoqlik ko‘rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim;
- 4) o’z so‘zi va va’dasi uchun, tarbiyachi va guruh topshiriqlarining bajarilishi uchun ma’suliyat tuyg‘usini tarbiyalash;

² Топволдиева З. Maktabgacha talim muasssalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakl, metod va vositalari. “Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар” мавзусидаги республика 12-кўп тармоқли илмий масофакий онлайн конференция материаллари. З-қисм. –Т.: 2020. 114-бет.

5) bolalarda kishilarga to‘g‘ri munosabatni, keksalar, bemorlar, nogironlarga nisbatan e’tibor va g‘amho‘rlikni, xushfe’l va betartib, kamtar va haqgo‘y bo‘lishini tarbiyalash.

Bolalarni kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o‘z xatti-harakatlariga va o‘rtoqlarining xatti-harakatigaadolatli baho berishga o‘rgatishi hamda o‘z kuch g‘ayratini bolalarda nopoliklik, adolatsizlik, kishilarga rahm-shafqatsiz bo‘lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

Bolalarni tarbiyalash o‘qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni bolalar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma’naviy-ahloqiy tarbiya ta’lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda, o‘zining xususiyatlariga ega. Ma’naviy-ahloqiy tarbiya o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni barcha protsesslarini bilim berish va o‘rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o‘zaro bog‘langan tomon: hayotni bilish va unga bo‘lgan munosabatni tarkib toptirish jarayonlari ajralib turadi. Hayotni bilish ma’lumot olishning asosiy funksiyasi, unga bo‘lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: O’n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o’n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. - T.: «O‘zbekiston», 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori.